



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 29-08-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

256568 - SONLI

Obyekt nomi: «Toshkent shahar Yashnobod tumani Beshariq ko'chasi manzilida joylashgan "THE NOTORIOUS GROUP" MChJga tegishli mavjud avtoturargoh inshootlarini - erto'la qismida avtoturargoh joylashgan, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualari bo'lgan ko'p qavatli turar joy binolariga ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish» (korrektura) ishchi loyihasi.	
Buyurtmachi:	LIDER PROF PROEKT MCHJ
Bosh loyihachi:	"LIDER PROF PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	083298

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi, Yashnobod tumani qurilish bo'limi tomonidan 2020-yil 13-oktyabrdagi 23244917-sonli ob'ektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga ruxsatnoma.

1.2. Belgilangan tartibda 2022-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan loyihalash topshirig'i.

1.3. Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Beshariq ko'chasi manzilida "THE NOTORIOUS GROUP" MChJ ga tegishli o'z yer uchastkasida yerto'la qismida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualari bo'lgan ko'p qavatli turar joy binolariga ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish uchun" ishlarining borishi va unga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish yuzasidan 15.01.2025-yilda o'tkazilgan yig'ilishning 1-sonli Bayoni.

1.4. Buyurtmachi tomonidan 2025-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan loyihalash topshirig'i (A va B bloklarida qo'shimcha qavat qurilishi).

1.5. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2020-yil 11-noyabrdagi 1726-1726290-4757-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.6. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasida 2022-yil 30-noyabrda tuzilgan 24/11-2022-sonli Loyiha ishlari uchun shartnoma.

1.7. 2020-yilda «TOSHqurilishmateriallariLITI» tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.8. Toshkent shahar Yashnobod tumani hududiy elektr tarmoqlari" AJ" ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 23.10.2020-yildagi 19/232-2750 sonli texnik sharti.

1.9. «Hududgazta'minot» AJ, "Hududgaz Poytaxt" GTF ning tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 23.03.2023 yildagi 017486 sonli texnik sharti.

1.10. O'zsuvta'minot "Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJ ning ichimlik va oqova suv ta'minotiga ulanishni loyihalashtirish uchun 15.07.2022 yildagi 270/4-1884 sonli texnik sharti.

1.11. "ZIKKURAT" MCHJ tomonidan 2023-yilda berilgan №58TO-23-son instrumental texnik tekshiruv xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. Konstruktiv hisob.

2.3. Binoning issiqlik texnikasi hisobi, 2022 yil "«LIDER PROF PROEKT» QMJ tomonidan ishlab chiqilgan.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2025-yil 14-iyuldagi 858-3-sonli xati.

2.5. "HET" AJ "Toshkent shahar hududiy filiali" ning 2024-yil 18-noyabrdagi 05-2712 sonli texnik sharti va "OZENERGOINSPEKSIYA" Toshkent shahar hududiy boshqarmasi Elektr loyihasi kelishilganligi haqida 2025 yil 24 yanvardagi TSH-10/36-40 son Xulosasi hamda "Toshkent shahar elektr tarmoqlari"MCHJ Yashnobod tumani elektr ta'minoti bo'limining ASKUE tizimiga mos ulanganlik to'g'risidagi 2025 yil 15 iyuldagi 19/197sonli Ma'lumotnomasi.

2.6. «Hududgazta'minot» AJ, "Hududgaz Poytaxt" GTF ning tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 15.09.2023 yildagi 035423 sonli texnik sharti va "Hududgaz Poytaxt" GTF ning 16.05.2025 yildagi 97 sonli turar joy majmuasi gaz tarmoqlarini ulash ishlariga Ruxsatnomasi.

2.7. O'zsuvta'minot "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ ning ichimlik va oqova suv ta'minotiga ulanishni loyihalashtirish uchun 2024-yil 2 avgustdagi 270/4-3421 sonli texnik sharti va "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ Yashnobod tumani "Suv tarmoqlari bo'limi" ning 2024-yil 20 dekabrdagi 270/4-4137 son ichimlik suv tarmoqlariga ulanganlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi.

2.8. "Shaharsozlik xujjatlari ekspertizasi" DUKning 19.04.2023-yildagi 92648-sonli yig'ma ekspert xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Tashqi havo harorati -140S.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Toshkent shahrining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi bo'yicha uchastkaning seysmikligi 8 ballga baholangan.

Binoning poydevoriga asos bo'lib IGE-2 xizmat qiladi;

IGE-2 -asosan tarkibida qum mavjud bo'lgan toshli qatlamdan iborat.

Tuproqning cho'kuvchanligi - I (birinchi).

Gruntning seysmik xususiyat turi - II (ikkinchi).

Yer osti suvlari yer yuzasidan 6,5- 6,7 m chuqurlikda aniqlangan.

Tuproqning muzlash chuqurligi -0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Ob'ekt Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Beshariq ko'chasi manzilida joylashgan.

Hududda quyidagi bino va inshootlar joylashgan:

- loyihalana-yotgan binolar (A, B, V, G, D bloklar);
- bolalar maydonchasi;
- yer osti avtoturargohi;
- dam olish ayvonchasi;
- axlat tashlash maydonchasi va boshqalar.

Hududning balans ko'rsatgichlari:

Xudud maydoni - 0.504 Ga;

Qurilish maydoni - 0.230 Ga;

Yo'l, tratuarlar maydoni - 0.214 Ga;

Ko'kalamzorlashtirilgan maydon -0.060 Ga.

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Ushbu ishchi loyihani korrektura qilishda Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Beshariq ko'chasi manzilida "THE NOTORIOUS GROUP" MChJ ga tegishli o'z yer uchastkasida yerto'la qismida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualari bo'lgan ko'p qavatli turar joy binolariga ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish uchun" ishlarining borishi va unga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish yuzasidan 15.01.2025-yilda o'tkazilgan yig'ilishning 1-sonli Bayoniga va loyihalash topshirig'iga ko'ra A va B bloklarga qavat qo'shish nazarda tutilgan.

A blok -13 qavatli, 1 pod'ezdli, to'rtburchak shaklida bo'lib, yerto'lali, rejadagi tarx o'lchami 33,6x15,6m.ni tashkil etadi.

Yerto'lalarning balandligi poldan shiftgacha $h=5,35m$, birinchi qavatning balandligi $h=4,2m$, 2-12 qavatlarining balandligi $h=3,3m$ va 13 qavat yengil konstruksiyali balandlik $h=3,3m$ (metal konstruksiyagacha)

Yerto'lada yer osti avtoturargoh, zinapoya tamburi, texnik xonalar, lift tamburi va boshqalar mavjud.

1-qavatda texnik xonalar, noturar joy va boshqalar joylashgan.

2-12 qavatlarda xonadonlar ko'zda tutilgan. 13 qavat yengil konstruksiyali, va unda comfort penthaus turidagi terrasali 3 ta xonadonlar ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosida 69 dona xonadon mavjud, jumladan:

- 1 xonali - 11 dona;
- 2 xonali - 44 dona;
- 3 xonali - 11 dona;
- comfort penthaus-3dona.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - $636,66 m^2$

Umumiy maydon - $6692,6 m^2$

Qurilish xajmi, 0.000 dan yuqori- $27\,202,30 m^3$

0.000 dan past - $3\,101,91 m^3$

B blok -12 qavatli, 1 pod'ezdli, to'rtburchak shaklida bo'lib, yerto'lali, rejadagi tarx o'lchami 24,3x19,3m.ni tashkil etadi.

Yerto'lalarning balandligi poldan shiftgacha $h=4,8\text{m}$, birinchi qavatning balandligi $h=4,2\text{m}$, 2-12 qavatlarining balandligi $h=3,3\text{m}$.

Yerto'lada yer osti avtoturargoh, zinapoya tamburi, texnik xonalar, lift tamburi va boshqalar mavjud.

1-qavatda texnik xonalar, noturar joy va boshqalar joylashgan.

2-12 qavatlarda xonadonlar ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosida 43 dona xonadon mavjud, jumladan:

- 2 xonali - 20 dona;
- 3 xonali - 10 dona;
- 4 xonali - 11 dona;
- 5 xonali - 1 dona;
- 11 qavatda comfort pentxaus turidagi terrasali 1ta xonadon.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni	-	735,07 m ²
Umumiy maydon	-	5 571,29 m ²
Qurilish xajmi, 0.000 dan yuqori	-	21 005,95 m ³
0.000 dan past qismi	-	3 288,48 m ³

V blok -10 qavatli, 1 pod'ezdli, to'rtburchak shaklida bo'lib, yerto'lali, rejadagi tarx o'lchami 20,2x15,6m.ni tashkil etadi.

Yerto'lalarning balandligi poldan shiftgacha $h=4,8\text{m}$, birinchi qavatning balandligi $h=4,2\text{m}$, 2-10 qavatlarining balandligi $h=3,3\text{m}$.

Yerto'lada yer osti avtoturargoh, zinapoya tamburi, texnik xonalar, lift tamburi va boshqalar mavjud.

1-qavatda texnik xonalar, noturar joy va boshqalar joylashgan.

2-10 qavatlarda xonadonlar ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosida 27 dona xonadon mavjud, jumladan:

- 2 xonali - 9 dona;
- 3 xonali - 18 dona;

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni	-	609,80 m ²
Umumiy maydon	-	3 695,79 m ²
Qurilish xajmi, 0.000 dan yuqori	-	11 974,83 m ³
0.000 dan past qismi	-	3 109,77 m ³

G blok -10 qavatli, 1 pod'ezdli, to'rtburchak shaklida bo'lib, yerto'lali, rejadagi tarx o'lchami 24,35x19,3m.ni tashkil etadi.

Yerto'lalarning balandligi poldan shiftgacha $h=4,8\text{m}$, birinchi qavatning balandligi $h=4,2\text{m}$, 2-10 qavatlarining balandligi $h=3,3\text{m}$.

Yerto'lada yer osti avtoturargoh, zinapoya tamburi, texnik xonalar, lift tamburi va boshqalar mavjud.

1-qavatda texnik xonalar, noturar joy va boshqalar joylashgan.

2-10 qavatlarda xonadonlar ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosida 27 dona xonadon mavjud, jumladan:

- 2 xonali - 9 dona;
- 3 xonali - 18 dona;

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni	-	546,13 m ²
------------------	---	-----------------------

Umumiy maydon	- 3 483,75 m ²
Qurilish xajmi, 0.000 dan yuqori	- 12 699,91 m ³
0.000 dan past qismi	- 2 785,26 m ³

D blok -10 qavatli, 1 pod'ezdli, to'rtburchak shaklida bo'lib, yerto'lali, rejadagi tarx o'lchami 17,2x15,6m.ni tashkil etadi.

Yerto'lalarning balandligi poldan shiftgacha h=4,8m, birinchi qavatning balandligi h=4,2 m, 2-10 qavatlarning balandligi h=3,3m.

Yerto'lada yer osti avtoturargoh, zinapoya tamburi, texnik xonalar, lift tamburi va boshqalar mavjud.

1-qavatda texnik xonalar, noturar joy va boshqalar joylashgan.

2-10 qavatlarda xonadonlar ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosida 27 dona xonadon mavjud, jumladan:

- 1 xonali - 9 dona;
- 2 xonali - 9 dona;
- 3 xonali - 9 dona.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni	- 409,50 m ²
Umumiy maydon	- 2 886,19 m ²
Qurilish xajmi, 0.000 dan yuqori	- 10 954,25 m ³
0.000 dan past qismi	- 2 088,45 m ³

Ichki pardoqlash bo'yicha:

-devorlar va shiftlar - gipsli suvoq, shpaklyovka, suvli va moyli bo'yoqlar bilan bo'yalgan;
 -pollar - quyma beton qoplama (styajka) linoleum, sopol-chinni keramik plitkalar, marmar tosh, laminat va boshqalar;

-deraza bloklari - issiqlik himoya qatlamiga ega PVX profillardan tayyorlangan;

-eshik bloklari - temir, issiqlik himoya qatlamiga ega alyumin, MDF va boshqalar;

Tashqi pardoqlash bo'yicha:

-tashqi devorlar -300mm qalinlikdagi gazoblokdan iborat bo'lib, ichki tarafdin to'rli yaxshilangan suvoq va pardozi sifatida suv asosli bo'yoq, tashqi tarafdin xam to'rli suvoq, bazalt asosli mineral paxta issiqlik izolyatsiya materiali, suvdan himoyalash uchun PVX membrana va pardozi suvog'i fibro-sement plitalari bilan qoplangan;

-sokol - metall karkas asosida keramogranit;

-tom qoplamasi - yog'och o'zak (konstruksiya) va profnastil, nishabli tom.

3.4. Konstruktiv yechimlar

Loyihalangan turar joy kompleksi - QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish") - (1.2.2 b) (Bog'lamli yoki rama bog'lamli) jadval 3.1 asosida qabul qilingan.

Binoni sxemasi - Bog'lamli yoki rama bog'lamli temir-beton o'zak, gazoblok bilan to'ldirilgan;

Poydevorlar - yaxlit quyma temirbetondan iborat.

O'zaklar (rigel-kolonna)- quyma temir-beton.

Bog'lovchi kamarlar (Obvyaz-poyas) - quyma temir-beton.

Tashqi devor - 300 mm qalinlikdagi gazoblok.

Pardevorlari (peregorodka) - 100, 200 mm qalinlikdagi gazablok.

Orayopma va tom yopma - qalinligi 160-220 mmdan iborat yig'ma temir beton plitalar va monolit quymali.

Zinalar - quyma temir-betondan;

Tom – chordoqsiz, tashqi suv tushiruvchi varonkali trubalar;

Tom qoplamasi – issiqlik himoyasining 3-darajasi qabul qilingan, tekis;

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'inga bardoshliligi – II toifa.

Funktsional yong'in xavf turi – F1.3, F 3.1.

Konstruktiv yong'in xavf toifasi – C0.

Loyihada yong'indan ogohlantirish va xabar berish tizimi o'rnatilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo'laklari ochiq balkon orqali zina xonaga o'tilishi belgilangan. Tok o'tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining yerga ulanishi va nolga teng bo'lishi belgilangan. Zinadan evakuatsiya qilish, binodan chiqish yo'nalishi bo'yicha yo'laklarda eshiklar ochilishi, evakuatsiya yo'llarida ichki pardozlash ishlarida yonmaydigan materiallardan bo'lishi belgilangan. Ichki yong'in o'chirish uchun suv ta'minoti manbai sifatida shahar suv quvuri tarmog'iga ulangan aylanma suv quvuri tarmog'i mavjud. Kompleksga shahar suv quvuridan tashqi aylanma tarmoqdan kirishi ko'zda tutilgan. Yog'ochli konstruksiyalarining chirishiga va olovga bardoshlilik talablari doirasida chirish va yong'indan himoya qilish qoplamalari bilan ishlov berilishi ko'zda tutilgan.

3.6. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- zichligi $\gamma=120\div125 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 50 mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (*termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi*);
- Orayopma termoizolyatsiyasi zichligi $\gamma=40\div45 \text{ kg/m}^3$ ga teng ekstruzion penopolistirol bilan bajarilgan (*termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi*);
- zichligi $\gamma=140\div160 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 150 mm bo'lgan mineral plitalardan qoplama termoizolyatsiyasi bajarilgan (*termoizolyatsiyaning uchinchi darajasi*);
- tomda 100 dona quyosh panellari ($100 \times 0,05 \text{ kVt} = 50 \text{ kVt}$), 10 dona quyosh kollektorlari va issiq suv ta'minoti uchun texnik yerto'lada issiqlikni akkumulyatsiyalovchi qo'shimcha energiya to'plagich idishlar (*boylerlar*) o'rnatilgan;
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va b.
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

3.7. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi, yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshirig'i).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 7-iyuldagi 199714304 -sonli xulosasi;

- Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (2025-yil 21-maydagi 01-02/14-6232-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi);

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (2023-yil 14-martdagi 124-3-sonli xati);

- "OZENERGOINSPEKSIYA" Toshkent shahar hududiy boshqarmasi Elektr loyihasi kelishilganligi haqida 2025 yil 24 yanvardagi TSH-10/36-40 son Xulosasi hamda "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ Yashnobod tumani elektr ta'minoti bo'limining ASKUE tizimiga mos ulanganlik to'g'risidagi 2025 yil 15 iyuldagi 19/197sonli Ma'lumotnomasi.

- "Hududgaz Poytaxt" GTF ning 16.05.2025 yildagi 97 sonli turar joy majmuasi gaz tarmoqlarini ulash ishlariga Ruxsatnomasi.

- "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ Yashnobod tumani "Suv tarmoqlari bo'limi" ning 2024-yil 20 dekabrda 270/4-4137 son ichimlik suv tarmoqlariga ulanganlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **90 466 995 596** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

3 517 561 800 so'mga kamaytirilib, **86 949 433 796** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **73 480 996 514** so'm

Asbob-uskunalar: **4 152 426 518** so'm

QQS: **9 316 010 764** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko'ra, obyektning dastlabki qiymati QQS va buyurtmachining boshqa xarajatlari 90 466 995,596 ming so'm bo'lib, qiymati 3 517 561,800 ming so'mga kamaytirilib 86 949 433,796 ming so'mni tashkil etdi, shu jumladan:

Asbob - uskunalar - 4 152 426,518 ming so'm;

Qurilish-montaj ishlari - 73 480 996,514 ming so'm;

Qo'shimcha qiymat solig'i - 9 316 010,764 ming so'm.

Obyektning qiymati ish hajmlarini, qurilish materiallari narxlarini, ish turlari va normalarini qayta ko'rib chiqish va buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan loyiha smeta hujjatlari natijasida shakllantirildi.

Chet el uskunolari, mebel va inventarlarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.4. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o'lchovlari natijalari asosida aniqlansin.

6.5. Buyurtmachi va loyihachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi quyidagilarni taqdim etishi zarur.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Toshkent shahar Yashnobod tumani Beshariq ko'chasi manzilida joylashgan "THE NOTORIOUS GROUP" MChJga tegishli mavjud avtoturargoh inshootlarini - erto'la qismida avtoturargoh joylashgan, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualari bo'lgan ko'p qavatli turar joy binolariga ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish" (korrektura) ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Ushbu xulosa taqdim etilishi bilan "Shaharsozlik xujjatlari ekspertizasi" DUKning 19.04.2023-yildagi 92648-sonli yig'ma ekspert xulosasi o'z kuchini yo'qotadi.

Bosh ekspert: Abduraxmanova Dilfuza Baxromovna.

Ishtirokchi ekspertlar: Abduraxmanova Dilfuza Baxromovna, Abdullayev Otabek

Nasrullayevich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Tashpulatov

Dilshat Xusanovich, Usmanov Kayrat Sharipbayevich